

**O‘zbekiston**  
**Metama'lumot**  
**Uy-joy fondini devor materiallari bo'yicha taqsimlanishi**

Ishlab chiqilgan sana: 31.05.2023

Oxirgi yangilangan sana: 31.05.2023

## 0. Asoslar

### 0.1 Qonuniy asoslar

#### 0.1.1 Statistika ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

##### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

2021-yil 11-avgustda Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo uchun Rasmiy statistika to'g'risidagi namunaviy qonunni asosida ishlab chiqilgan "Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikaning tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o'rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikaning tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Rasmiy statistika to'g'risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma'lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o'tkazish va olingan birlamchi ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo'lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag'batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni so'rash hamda olish;
- rasmiy statistikaning tayyorlash uchun zarur bo'lgan statistika ma'lumotlarini yig'ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;
- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

2017-yil 12-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma’lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma’lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to‘g‘ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

### **0.1.2 Ma’lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish**

#### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma’lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma’lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o‘z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko‘ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma’lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta’minlash uchun mas’ul bo‘lgan bo‘linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilar o‘zlarida mavjud bo‘lgan statistika ma’lumotlarini va (yoki) ma’muriy ma’lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo‘yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo‘yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

### **0.1.3 Respondentlar individual ma’lumotlarining maxfiyligi**

#### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma’lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma’lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma’lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma’muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo‘jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

Statistika agentligi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Statistika agentligining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

#### **0.1.4 Statistika hisobotlarni taqdim etish**

##### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat statistika organlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo‘lgan hisobot va boshqa ma‘lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma‘lumotlarini buzib ko‘rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o‘tkazish chog‘ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to‘liq ma‘lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

## **0.2 Resurslar**

### **0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish**

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasida 13 nafar hodim ishlaydi. Boshqarma 3 nafar bo‘limdan iborat.

Markaziy apparatda ko‘rsatkichni shakllantirish bo‘yicha 2 nafar xodim, hududiy statistika boshqarmalarining xizmatlar sohasi statistika bo‘limlarida 1 nafar xodim tomonidan amalga oshiriladi.

Barcha xodimlar iqtisodiy sohada oliy ma‘lumotga ega va kamida 2 yilda bir marta Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida malaka oshiradilar.

Har bir ish joyi shaxsiy kompyuter bilan ta‘minlangan, dasturiy ta‘minot muntazam yangilanib turadi.

Taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar statistika dasturida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun yetarli.

## 1. Beg‘arazlik

### 1.1 Kasbiy mahorat

#### 1.1.1 Statistikaning xolisligi

##### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy prinsiplari, jumladan beg‘arazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo‘limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo‘lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo‘ysunadi.

Mazkur statistik ma‘lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo‘l qo‘yilmagan va kasbiy mustaqillik to‘liq ta‘minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e‘tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslari, o‘quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta‘minlash orqali ta‘minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o‘quv kurslarida ma‘ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e‘lon qilib borish tashkil etilgan.

#### 1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

##### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta‘minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma‘lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma‘lumotlarni birlashtirish, ma‘lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog‘lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma‘lumotlar to‘plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma‘lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma‘lumotlarining sifati to‘g‘risida metama‘lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

### 1.1.3 Statistika ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

#### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Statistika agentligi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

## 1.2 Shaffoflik

### 1.2.1 Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

#### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari tushunarlik va shaffoflik. Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistika qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining [www.lex.uz](http://www.lex.uz) manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistika ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Statistika agentligi rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

### 1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

#### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Hukumat Statistika agentligi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistika ma'lumotlarni tarqatishda davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Agentlik direktori, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

### 1.2.3 Statistika ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

#### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

### 1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

#### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Statistika agentligi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Statistika agentligi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

### 1.3. Axloq me'yorlari

#### 1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

##### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

Statistika agentligi xodimlari uchun Odoq-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Statistika agentligi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

## 2. Uslubiyat

### 2.1 Konsepsiya va tushunchalar

#### 2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

Hududlar bo'yicha uy-joy fondining devor materiallari taqsimoti. Bu ko'rsatkich turar joy joylashgan binoning muayyan konstruksiyaviy elementlari ishlangan materiallar to'g'risida ma'lumot turar joyning sifatini baholash uchun boshqa belgilar bo'yicha ma'lumotlar bilan bog'liq holda qo'llaniladi. Turar joy binolarining devor materiallari quyidagi guruhlariga bo'linadi: yog'ochli, pishirilmagan gil (xom g'isht, loy paxsa va boshqalar), pishirilgan gil (g'isht, blokklar, panellar va boshqalar), tosh, beton (joyida quyilgan beton, blokklar, panellar va boshqalar) yoki po'lat karkas (yirik panelli va temir betonli), konstruksiyaning terma elementlari, ular odatda zavodda tayyorlanadi, qurilish maydoniga yuboriladi va o'rnatiladi, aralash materiallar (ya'ni, qurilish materiallari kombinatsiyasi), boshqa turdagi materiallar.

### 2.2 Statistik qamrov

#### 2.2.1 Statistik qamrov

##### 2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamroviga Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri, shuningdek, shahar va tumanlar kiradi.

Ma'lumot Kadastr agentligi tomonidan taqdim etilgan uy-joy fondining statistik idoraviy hisoboti ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

##### 2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Hech qanday istisnolar yo'q.

### 2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

“Yashirin” iqtisodiyot hisobga olinmaydi.

## 2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

### 2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

O'zbekiston Respublikasi hududlari, tumanlar va shaharlar bo'yicha taqsimlanadi.  
Asosiy hisob birligi - institutsional birlik.

## 2.4 Hisobga olish asoslari

### 2.4.1 Baholash

Hududlar bo'yicha uy-joy fondining devor materiallari taqsimoti. Ushbu ko'rsatkichni Kadastr agentligi tomonidan yil yakunlari bo'yicha viloyatlar kesimida taqdim etilgan idoraviy statistika hisobot ma'lumotlarida aks ettiradi.

### 2.4.2 Hisobga olish asosi

Ko'rsatkichni Kadastr agentligi tomonidan yil yakunlari bo'yicha viloyatlar kesimida taqdim etilgan idoraviy statistika hisobot ma'lumotlarida asosida tuziladi.

### 2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

“Hududlar bo'yicha uy-joy fondining devor materiallari taqsimoti” indikatori har yili shakllanadi.

## 3. Aniqlilik va ishonchlik

### 3.1 Birlamchi ma'lumotlar

#### 3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Hududlar bo'yicha uy-joy fondining devor materiallari taqsimotini hisoblash uchun axborot manbai bo'lib idoraviy statistika hisobotining birlamchi ma'lumotlari hisoblanadi.

#### 3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Hududlar bo'yicha uy-joy fondining devor materiallari taqsimoti - bu uy-joy fondini turar-joy binolari va inshootlarini) har bir devor konstruksiya materiali turlari bo'yicha taqsimlangan ma'lumotlardir. Turar joy binolarining devor materiallari quyidagi guruhlarga bo'linadi: yog'ochli, pishirilmagan gil (xom g'isht, loy paxsa va boshqalar), pishirilgan gil (g'isht, bloklar, panellar va boshqalar), tosh, beton (joyida quyilgan beton, bloklar, panellar va boshqalar) yoki po'lat karkas (yirik panelli va temir betonli), konstruksiyaning terma elementlari, ular odatda zavodda tayyorlanadi, qurilish maydoniga yuboriladi va o'rnatiladi, aralash materiallar (ya'ni,

qurilish materiallari kombinatsiyasi), boshqa turdagi materiallar. Bu ko'rsatkich yil oxiridagi umumiy uy -joy fondining devor materiallari umumiy ko'rsatkichini turlar kesimiga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.

Statistik qamrov – ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini, shuningdek, shahar va tumanlarni o'z ichiga oladi.

Statistika hisobini takomillashtirish maqsadida har yili idoraviy hisobot shakli qayta ko'rib chiqiladi.

### **3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi**

Ma'lumot yig'ish Statistika dasturi bilan tartibga solinadi.

Olingan ma'lumotlarga asoslanib, har yili respublika, hududlar hamda shahar va tumanlar kesimida statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda ko'rsatkichlar ishlab chiqariladi.

Ma'lumotlar – yillik, hisobot davridan keyin 5 oydan oshmasdan tayyorlanishi kerak.

## **3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash**

### **3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash**

Olingan ma'lumotlar nafaqat viloyat va tuman boshqarmalarida, balki Kadastr agentligi tomonidan ham tahlil qilinib, majburiy nazorat va tekshirishdan o'tkaziladi. Agar ro'yxatga olish, tasniflash, nazorat qilishda xatolar aniqlansa, ma'lumotlar qayta aniqlashtiriladi.

## **3.3 Statistik usullar**

### **3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar**

Hududlar bo'yicha uy-joy fondining devor materiallari taqsimotini hisoblash uchun tayanch va joriy davr ma'lumotlarini taqqoslash amalga oshiriladi.

Ko'rsatkich yil oxiridagi uy-joy fondini devor materiallarining turlariga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.

### **3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar**

Yo'q.

## **3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash**

### **3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash**

Hududlar bo'yicha uy-joy fondining devor materiallari taqsimotini hisoblash uchun asosiy va joriy davrlar uchun axborotni taqqoslash amalga oshiriladi.

Agar ro'yxatga olish, tasniflash, nazorat qilish jarayonida xatolar aniqlansa, ma'lumotlar Kadastr agentligining hududiy boshqarmalari bilan birgalikda qayta aniqlashtiriladi.

### 3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Agar ilgari e'lon qilingan ma'lumotlarda tafovutlar aniqlangan bo'lsa, keyingi nashrlarda tuzatishlar kiritiladi.

### 3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Agar ilgari e'lon qilingan ma'lumotlarda tafovutlar aniqlangan bo'lsa, keyingi nashrlarda tuzatishlar kiritiladi.

## 3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

### 3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

Agar avval e'lon qilingan ma'lumotlarda tafovutlar aniqlangan bo'lsa, keyingi nashrlarda tuzatishlar kiritiladi

Ma'lumotlarni nashr qilish: har yili - hisobot davridan keyin 5 oydan oshmasligi kerak.

## 4. Amaliy yaroqlilik

### 4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

#### 4.1.1 Davriylik

Davriylik – umumiy qabul qilingan ma'lumotlarni tarqatish standartlariga javob beradi.

“Hududlar bo'yicha uy-joy fondining devor materiallari” indikatorini shakllantirish hisobot davridan keyin har yili 5 oydan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

#### 4.1.2 O'z vaqtidaligi

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha statistika ma'lumotlarni ishlab chiqarish va statistika dasturi asosida ma'lumotlarni tarqatish – har yili hisobot davridan keyin – 5 oydan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

### 4.2 Qiyosiylik

#### 4.2.1 Ichki qiyosiylik

Tasdiqlangan va tarqatilgandan so'ng, statistika ma'lumotlari qayta ko'rib chiqilmaydi.

#### 4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

Ma'lumotlar 2010- yildan Statistika agetligining rasmiy saytida (<http://stat.uz>) taqdim etilgan.

#### 4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

Yo'q.

## 4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

### 4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Yakuniy ma'lumotlarni shakllantirish muddatlari Statistika dasturida belgilanadi. Statistika dasturi Statistika agentligining rasmiy saytida ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)), shuningdek Adliya vazirligining [www.lex.uz](http://www.lex.uz) rasmiy saytida joylashtirilgan.

### 4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

Yakuniy ma'lumotlar har yili, hisobot davridan keyin 5 oydan ko'p bo'lmagan muddatda ishlab chiqariladi. Ma'lumotlar 2010- yildan Statistika agentligining rasmiy saytida (<http://stat.uz>) taqdim etilgan.

### 4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Agar ilgari e'lon qilingan ma'lumotlarda xatolik aniqlansa, keyingi nashrlarda aniq ma'lumot beriladi. Qayta ko'rib chiqilgan (yakuniy) ma'lumotlar Statistika agentligining nashrlari orqali tarqatiladi.

## 5. Qulayligi

### 5.1 Ma'lumotlar

#### 5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Yillik ma'lumotlar foydalanuvchilarga taqdim etiladi. Bir necha davrdagi ko'rsatkichlar ma'lumotlarni taqqoslash uchun jadvallar ko'rinishida taqdim etiladi. Statistik ma'lumotlarni chop etish muddatlari har yili tasdiqlanadigan statistika dasturida aks ettiriladi.

#### 5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

##### 5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Axborot foydalanuvchilarining talablariga muvofiq jadvallar ko'rinishida taqdim etiladi.

##### 5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

##### 5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Mavjud emas.

#### 5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Mavjud emas.

#### 5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Davlat idoralari va boshqa foydalanuvchilarning maxsus so‘rovlari uchun jadvallar.

#### 5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Ma’lumotlar 2010- yildan Statistika agentligining rasmiy saytida (<http://stat.uz>) jadvallar ko‘rinishida taqdim etilgan.

### 5.1.3. Ma’lumotlarni e’lon qilish jadvali

Yillik ma’lumotlar Statistika agentligining rasmiy saytida (<http://stat.uz/uz>), Statistika dasturida belgilangan muddatlarga muvofiq e’lon qilinadi.

#### 5.1.4 Bir vaqtning o‘zida e’lon qilish

Yo‘q.

### 5.1.5 So‘rov bo‘yicha ma’lumotlarni tarqatish

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuniga va boshqa me‘yoriy hujjatlarga muvofiq, statistik ma’lumotlar foydalanuvchilarning talabiga binoan belgilangan tartibda taqdim etiladi. Statistika ma’lumotlarini tarqatish yuridik yoki jismoniy shaxslarning so‘roviga binoan bosma yoki elektron jadvallar, statistika to‘plamlari, byulleten, tezkor ma’lumot, shuningdek, tomonlar o‘rtasida ma’lumot almashish to‘g‘risidagi kelishuvlar shaklida amalga oshiriladi.

## 5.2 Metama’lumotlar

### 5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma’lumotlar manbasi va statistik usullar to‘g‘risidagi hujjatlar va ma’lumotlarni tarqatish

“1-uy-joy shakli” (“Uy-joy fondining hisoboti”) shakliga tushuntirishlar berilgan.

## 5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko‘rsatish

### 5.3.1 Aloqa bog‘lash bo‘yicha ma’lumotlarni tarqatish

Statistika agentligining rasmiy saytida (<http://stat.uz>).

## 9. Rejalar

### 9.1 Oxirgi

#### 9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Idoraviy statistik kuzatuvlar vositalarini (shakllarini) takomillashtirish.

### 9.2 Umumiy

#### 9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Idoraviy statistik kuzatuvlar vositalarini (shakllarini) takomillashtirish.

#### 9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O‘rta muddatli

Statistika dasturida belgilangan muddatlarda idoraviy statistika kuzatuvlarini (shakllarini) takomillashtirish.

### 9.3 Moliyaviy

#### 9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko‘makka talab – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish statistika dasturi doirasida amalga oshiriladi.

#### 9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko‘makka talab – O‘rta muddatli

Moliyalashtirish statistika dasturi doirasida amalga oshiriladi.

## Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Mirzaxidov Abdug'ofur Yuldashevich
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
Manzil:	Mustaqillik shoh ko'chasi, 63-uy
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998 71 2028059
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	a.mirzaxidov@stat.uz